

**O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHDA NEMIS  
MILLATINING (DIASPORASI) O'RNI**

**Mirzaxanova Dilfuza Nig'matulla qizi,**

*University of Business and Science Toshkent filiali "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"  
kafedrası o'qituvchisi*

**E-mail:** [dilfuzabegim9767@gmail.com](mailto:dilfuzabegim9767@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamjihatlikni ta'minlashda nemis diasporasining o'rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Unda nemis millatining respublikaga kirib kelish tarixi, ijtimoiy-madaniy hayoti hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi hissasi yoritilgan. Shuningdek, nemis madaniy markazlarining faoliyati, ularning yoshlar tarbiyasi va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo hamjihatlik, nemis diasporasi, millatlararo totuvlik, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, O'zbekiston, milliy madaniyat, ijtimoiy integratsiya.

**Аннотация.** В данной статье научно анализируется роль немецкой диаспоры в обеспечении религиозной толерантности и межконфессионального согласия в Узбекистане. Рассматриваются история формирования немецкого населения, его социально-культурная жизнь и вклад в укрепление межнационального согласия. Особое внимание уделено деятельности немецких культурных центров, их роли в воспитании молодежи и развитии межкультурного диалога. В результате исследования обосновано, что религиозная толерантность и межнациональное согласие являются приоритетными направлениями государственной политики Узбекистана.

**Ключевые слова:** религиозная толерантность, межконфессиональное согласие, немецкая диаспора, межнациональное согласие, межкультурный диалог, толерантность, Узбекистан, национальная культура, социальная интеграция.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the role of the German diaspora in ensuring religious tolerance and interfaith harmony in Uzbekistan. It examines the history of the German population's settlement, their socio-cultural life, and their contribution to strengthening interethnic relations. Particular attention is paid to the activities of German cultural centers and their role in youth education and the development of intercultural dialogue. The study concludes that religious tolerance and interethnic harmony are key priorities of state policy in Uzbekistan.

**Keywords:** religious tolerance, interfaith harmony, German diaspora, interethnic relations, intercultural dialogue, tolerance, Uzbekistan, national culture, social integration.

**Kirish.** Bugungi kunda har qanday jamiyat va davlat hayotida diniy bag'rikenglik hamda konfessiyalararo hamjihatlik muhim o'rin tutadi. Zero, dunyo miqyosidagi tahlikali vaziyatlar tinchlik, barqarorlikni saqlashda jahon afkor ommasidan diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamjihatlikni ta'minlash borasida jiddiy fikrlashni taqazo etmoqda. Bunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ayni damda mamlakatimizda mazkur sohada aniq maqsadga yo‘naltirilgan vazifalarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, bu borada mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo hamjihatlikni ta‘minlash, tolerantlik madaniyatini asrashga bolgan ijobiy munosabat mamlakatimiz taraqqiyotida yangi davrning boshlanishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston ko‘pmillatli Respublika bo‘lib, bu mintaqada XIX asr oxirida o‘zining tub aholisi bilan bir qatorda boshqa millat vakillari shu jumladan, nemislar ham istiqomat qilib kelmoqda. XIX asr o‘rtalarida Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingan Turkiston yerlariga rus mintaqalaridan: Volgabo‘yi hududlari, Ukraina va Yevropadan nemis millatiga mansub aholi ko‘chib kelib o‘rnasha boshladi.

1980-yilga kelib respublikamiz hududida yashayotgan nemis aholisini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotchi A.M.Matveyev tashabbusi bilan amalga oshirildi. U nemislarning diasporasi ya‘ni o‘z vatanidan tashqarida yashaydigan va o‘z jamoasini saqlab qolish uchun ijtimoiy institutlarga ega bo‘lgan etnik guruhlar jamoasi hamda ularning respublikamiz ijtimoiy, ma‘naviy, siyosiy hayotidagi roli haqida ma‘lumotlar to‘plab, o‘z tadqiqotlarida bayon etdi.[1]

2000-2005-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan nemis millatiga mansub aholini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar soni o‘sdi. Rusiyabon nemis olimlari V.L. Gentshke, N.X. Knauer, V.G.Chebotareva kabilar o‘lkadagi nemislar hayoti, turmushi, diniy qarashlari haqida ma‘lumotlar to‘plab o‘z tadqiqotlarida batafsil bayon etishdi.

1990 yili Toshkentda hududiy bo‘limlarni birlashtiruvchi “Wiedergeburt” — “Tiklanish” nemis milliy-madaniy markazi tashkil etilgan. Uning filiallari Buxoro, Samarqand va Farg‘ona shaharlarida ham faoliyat yuritmoqda.

**Muhokama va natijalar.** O‘zbekiston nemislar madaniy markazining ustuvor vazifalari — nemis madaniyatining eng muhim jihatlarini tiklash, nemis xalqining jozibador qo‘shiq va raqslari bilan o‘tadigan quvnoq bayramlarini tashkil qilish, yoshlarni nemis tiliga o‘rgatishdir. Ushbu markazlar qoshida yoshlar uchun xalq ijodiyoti, teatr va raqs san‘ati bo‘yicha to‘garaklar ishlamoqda. Nemis tilini yil davomida chuqur o‘rganish dasturi doirasida Germaniyadan kelgan o‘qituvchilar ishtirokida “Sommerssprachakademie” respublika yozgi lingvistika lageri tashkil qilinadi.

“Jugendstern” — “Yoshlar yulduzi” deb nomlanuvchi yoshlar tashkiloti markazga ijtimoiy, madaniy va ta‘lim ishlarida ko‘maklashadi.

Respublika raqs festivalini o‘tkazish, nemis tilida so‘zlashuvchi havaskor teatrlarning har yili o‘tkaziladigan festivalida jahon klassikasi, zamonaviy nemis va o‘zbek mualliflari asarlarini sahnalashtirish yoshlarning asosiy loyihalaridir. Yosh

havaskor aktyorlarga yordam berish maqsadida Germaniyadan maxsus pedagoglar va teatr arboblari taklif etilib, ular ishtirokida teatr san’ati bo’yicha masterklass o’tkaziladi. Keksa yoshdagilar uchun tashkil qilingan Senorlar klubida doimo xalq qo’shiqlari yangraydi, yoshlar bilan an’anaviy Pasxa — Ostern, katoliklar Rojdestvosi — Weihnacht, Zaminni qadrlash bayrami — Erntedankfest, Onalar kuni va Otalar kuni — Muttertag va Fatertag, Oktoberfest bayramlari nishonlanadi.

Markaz tomonidan respublikada yashagan va yashayotgan nemislar tarixi bo’yicha seminarlar, O‘zbekiston va Germaniyaning buyuk san’at namoyandalariga bag’ishlangan kechalar o’tkaziladi. Jahon musiqasining buyuk kompozitorlari Iogann Sebastyan Bax, Ludvig van Betxoven, Frans Shubert, Rixard Vagner, Wolfgang Amadey Motsart asarlarining “So‘g‘diyona” o‘zbek milliy cholg‘ular

orkestri tomonidan an’anaviy ijro etilishi keng jamoatchilik tomonidan doimo yuqori baholangan.

“Wiedergeburt” markazining so‘nggi nashrlari qatorida “O‘zbekistonning nemis rassomlari” kitob-albomi, “O‘zbekistonlik nemislar madaniyatlar muloqotida”, “Farg‘ona vodiysi nemislari: tarix va bugungi kun” kitoblarini ko‘rsatish mumkin.

Respublikada yashaydigan nemislar masalasi bo’yicha 1995 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston — Germaniya hukumatlararo komissiyasi faoliyati, shuningdek, komissiya a’zolarining faollar bilan muntazam uchrashuvlari respublikadagi Nemis madaniy markazlari ishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam berib kelmoqda. “Wiedergeburt” Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi, Toshkentdagi Gyote instituti, boshqa nemis tashkilotlari, shuningdek, “O‘zbekiston–Germaniya” do‘stlik jamiyati bilan yaqindan hamkorlik qiladi.[2]

2006-yili may oyi va 2010-yili iyun oyida Omsk shahrida o‘tkazilgan “Sibirdagi nemislar: tarixi va madaniyati” (“Немцы Сибири: история и культура”) V- va VI-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada O‘zbekistonlik olimlar ham ishtirok etdi. Shuningdek, 2008-yil noyabr oyida esa O‘zbekistonda ilk bora “O‘zbekistondagi nemislar diasporasi madaniyatlar muloqotida” (“Диаспора немцев Узбекистана в диалоге культур”) nomli ilmiy-amaliy konferensiya Respublikamizdagi “Wiedergeburt” nemis madaniyat markazi tomonidan Roszarubejsentr (Росзарубежцентр)ning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi va Respublika Xalqaro madaniyat markazi bilan hamkorlikda o‘tkazildi. Unda Respublikadagi nemislar tarixi, ularning iqtisodiyot, fan va madaniyatga qo‘shgan hissalar haqida to‘xtaldi. G.A.Atashova, K.K.Kibe, V.A.Germanov, V.A.Ivonin, D.M.Inoyatova, M.G.Rekk kabi olimlar o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar. Bugungi kunda nemislarning respublikaga kirib kelish tarixini, turmush tarzi va faoliyatini o‘rganish bo’yicha eng faol tadqiqot olib borgan olima D.M.Inoyatova bo‘lib, u mazkur

muammolar bo'yicha o'zining doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olimaning O'zbekistonda va xorijda bir qator maqolalari nashr etildi. Ko'pgina ilmiy konferensiyalarda tadqiqoti doirasida nutqlar so'zlashdi.[3]

Xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatining taraqqiy etishida millatlararo totuvlik, konfessiyalararo hamkorlik muhitining hukm surishi yurtdoshlarimizni ona – Vatanga fidoyi va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z navbatida mazkur omillar O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Zero, O'zbekistonda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik muhitini mustahkamlash orqali mamlakatimiz fuqarolari o'rtasidagi o'zaro birdamlik, totuvlik va inoqlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda barchaga ma'lumki, xalqaro terrorizm, radikalizm, mutaasiblik, ekstremizm kabi muammolar chegara bilmasligi dunyo jamoatchiligida jiddiy tashvish uyg'otayotgani ajab emas.

**Xulosa** qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doim sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir, deya bejiz ta'kidlamagan. Zero, xalqimiz ma'naviyatiga xos bo'lgan millatlararo totuvlik, konfessiyalararo hamjihatlik ta'minlanishi avvalo, jamiyatdagi ezgu g'oyalar va insoniy fazilatlarni kamol toptirish orqali yurtimizda tinchlik va barqarorlikni hukm surishida muhim o'rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2017–2023.
5. Atashova G.A. O'zbekistonda nemis diasporasi tarixi va madaniyati // *Ilmiy maqolalar to'plami*. – Toshkent, 2008.
6. Inoyatova D.M. *O'zbekistonda nemis diasporasi: tarixiy va ijtimoiy tahlil*. – Toshkent, 2010.
7. Kibe K.K. Nemis diasporasining Markaziy Osiyodagi o'rni // *Tarix va jamiyat*. – 2009. – №3. – B. 45–52.